


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2020- yil yanvar)


2020- yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 44,3 mln. AQSh dollariga yetib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 67,2 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 31,0 mln. AQSh dollarga va import hajmi 13,3 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosi 17,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSh dollari)



2020- yilning yanvar oyida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,6 % ni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 78,7 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 59,4 % bo'lib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 61,0 % ni tashkil qilgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 41,2 % ni, boshqa davlatlar 58,8 % ni va import hajmida MDH davlatlari 39,1 % ni, boshqa davlatlar 60,9 % ni tashkil qildi.

**2020- yil yanvar oyida respublika tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2020- yilning yanvar oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, dekabr oyiga nisbatan 7,6 mln. AQSh dollarga kam eksport qilindi va 31,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 13,3 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa dekabr oyiga nisbatan 11,7 mln. AQSh dollariga kamroqdir.

2020- yil yanvar oyida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko'rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, % da	o'zgarish sur'ati, % da
Xitoy	12,7	8,7	4,0	28,6	73,0
Rossiya	11,9	9,1	2,8	26,9	77,9
Qozog'iston	5,8	3,5	2,3	13,0	98,5
Turkiya	5,2	5,2	-	11,8	61,3



(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, % da	o'zgarish sur'ati, % da
Latviya	3,7	3,5	0,2	8,3	2,3 b.
Koreya Respublikasi	2,1	0,1	2,0	4,8	63,2
Vyetnam	0,6	-	0,6	1,3	149,3
AQSH	0,3	-	0,3	0,8	13,9 b.
Eron	0,3	-	0,3	0,7	3,1 b.
Iroq	0,3	0,3	-	0,7	2,0 b.
Pokiston	0,3	0,3	-	0,6	-
Buyuk Britaniya	0,2	-	0,2	0,4	2,4
Estoniya	0,1	0,1	-	0,3	26,6

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020- yil yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 40,6 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati 2019- yilning shu davriga nisbatan 78,7 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019- yilning yanvar oyida 65,4 % ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 59,4 % ga yetdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	2018- yil yanvar	2019- yil yanvar	2020- yil yanvar
Xitoy	14,5	17,3	12,7
eksport	11,3	6,1	8,7



Davlat nomi	2018- yil yanvar	2019- yil yanvar	2020- yil yanvar
Import	3,2	11,2	4,0
saldo	8,1	-5,1	4,7
Rossiya	17,2	15,3	11,9
eksport	12,0	12,9	9,1
import	5,2	2,4	2,8
saldo	6,9	10,5	6,3
Qozog'iston	5,4	5,9	5,8
eksport	4,1	4,6	3,5
import	1,3	1,3	2,3
saldo	2,9	3,3	1,2
Turkiya	7,9	8,5	5,2
eksport	7,1	6,5	5,2
import	0,8	2,0	-
saldo	6,4	4,5	5,2
Latviya	2,2	1,6	3,7
eksport	2,2	1,6	3,5
import	-	-	0,2
saldo	2,2	1,6	3,3
Koreya Respublikasi	0,1	3,4	2,1
eksport	0,1	0,8	0,1
import	-	2,6	2,0
saldo	0,1	-1,8	-1,9
Vyetnam	-	0,4	0,6
eksport	-	-	-
import	-	0,4	0,6
saldo	-	-0,4	-0,6
AQSH	-	-	0,3




Davlat nomi	2018- yil yanvar	2019- yil yanvar	2020- yil yanvar
eksport	-	-	-
import	-	-	0,3
saldo	-	-	-0,3
Eron	-	0,1	0,3
eksport	-	-	-
import	-	0,1	0,3
saldo	-	-0,1	-0,3
Iroq	0,2	0,2	0,3
eksport	0,2	0,2	0,3
import	-	-	-
saldo	0,2	0,2	0,3
Pokiston	0,2	-	0,3
eksport	0,2	-	0,3
import	-	-	-
saldo	0,2	-	0,3
Buyuk Britaniya	0,5	7,1	0,2
eksport	-	-	-
import	0,5	7,1	0,2
saldo	-0,5	-7,1	-0,2
Estoniya	0,3	0,5	0,1
eksport	0,3	0,2	0,1
import	-	0,3	-
saldo	0,3	-0,1	0,1


EKSPORT

2020- yil yanvar oyida eksport hajmi 31,0 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,2 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (75,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (6,1 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (% da)




Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Eksport	31,0	90,3	100	12,8	68,0	100	18,3	117,3	100
Paxta-tolasi	1,5	-	4,9	-	-	-	1,5	-	8,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	1,9	115,1	6,1	0,5	2,0 b.	3,6	1,4	101,0	7,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	23,5	77,4	75,6	10,9	62,2	85,5	12,5	98,3	68,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,1	13,8	0,4	-	-	-	0,1	54,7	0,6
Mashina va asbob-uskunalar	0,1	-	0,2	-	-	-	0,1	-	0,4
Xizmatlar	0,2	170,6	0,8	0,2	162,8	1,6	0,0	2,4 b.	0,2
Boshqalar	3,7	2,6 b.	12,0	1,2	4,7 b.	9,3	2,5	2,2 b.	13,9

Xizmatlar eksporti hajmi 0,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,8 % ini tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 170,6 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (51,3 %), safarlar (39,6 %) va moliyaviy xizmatlar (9,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.


Xizmatlar eksporti tarkibi, (% da)




Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2020- yilning yanvar oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, dekabr oyiga nisbatan 5,2 mln. AQSh dollariga kam eksport qilindi va 30,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,2 mln. AQSh dollariga yetgan.

**Respublika eksportida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi, (% da)
(yanvar)**

2019- yil



2020- yil



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 97,2 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiyaga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O'rne	
	2019- y. yanvar	2020- y. yanvar	2019- y. yanvar	2020- y. yanvar	2019- y. yanvar	2020- y. yanvar
Rossiya	12,8	9,1	37,4	29,3	1	1
Xitoy	6,1	8,7	17,8	28,0	3	2
Turkiya	6,5	5,2	18,9	16,7	2	3
Qozog'iston	4,6	3,5	13,3	11,2	4	4
Latviya	1,6	3,4	4,7	11,1	5	5
Iroq	0,2	0,3	0,4	1,0	9	6
Pokiston	0,0	0,3	0,0	0,9	11	7

Koreya Respublikasi	0,8	0,1	2,4	0,4	6	8
Estoniya	0,2	0,1	0,5	0,4	8	9
Turkmaniston	0,1	0,1	0,2	0,3	10	10
Qirg'iziston Respublikasi	0,7	0,1	1,9	0,2	7	11

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2020- yilning yanvar oyida jami 2 735,3 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 436,4 ming AQSh dollariga eksport qilindi (2019- yilning mos davriga nisbatan 2,0 barobarga o'sgan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2020- yilning yanvar oyida 2 726,8 tonna sabzavotlar 431,6 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 3,0 tonna meva va rezavorlar 2,5 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan 66,9 tonnaga kamaygan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi





Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2020- yilning yanvar oyida sabzavotlar eksporti hajmi 431,6 ming AQSh dollariga yetdi (2019- yilning mos davriga nisbatan 3,6 barobarga o'sgan).

Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi

Davlat nomi	2019- yil yanvar			2020- yil yanvar		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, % da	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, % da
Qozog'iston	440,9	163,3	74,9	2 669,8	420,1	96,3
Rossiya	37,4	25,7	11,8	65,6	16,3	3,7
Ruminiya	105,0	13,4	6,1	-	-	-
Turkmaniston	180,0	15,8	7,2	-	-	-


Meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




IMPORT

2020- yilning yanvar oyida import hajmi 13,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan 58,0 % ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (46,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari (18,5 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (6,9 %) guruhlarini hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



Tovar va xizmatlar importi ulushi, (% da)





Import tarkibi


	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Import	13,2	42,0	100	5,2	129,3	100	8,1	29,3	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,4	145,8	18,5	2,4	148,2	45,7	0,1	98,3	1,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,9	83,8	6,9	0,1	90,0	1,1	0,9	83,5	10,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	0,1	3,8 b.	0,6	-	-	-	0,1	2 946,7 b.	1,0
Qora va rangli metallar	0,1	30,9	0,6	0,0	3,6 b.	0,5	0,1	21,4	0,7
Mashina va asbob-uskunalar	6,2	27,3	46,9	1,2	7,7 b.	23,1	5,0	22,2	62,2
Xizmatlar	1,1	62,3	8,3	0,0	5,9	0,4	1,1	77,6	13,3
Boshqalar	2,4	60,8	18,2	1,5	84,4	29,2	0,9	41,4	11,1

**Qoraqalpog'iston Respublikasiga
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**




Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O'рни	
	2019- y. yanvar	2020- y. yanvar	2019- y. yanvar	2020- y. yanvar	2019- y. yanvar	2020- y. yanvar
Xitoy	11,2	4,0	35,6	30,1	1	1
Rossiya	2,4	2,8	7,7	21,2	4	2
Qozog'iston	1,3	2,3	4,0	17,4	5	3
Koreya Respublikasi	2,6	2,0	8,1	15,2	3	4
Vyetnam	0,4	0,6	1,2	4,3	6	5
AQSH	0,0	0,3	0,1	2,6	9	6
Eron	0,1	0,3	0,3	2,4	7	7
Latviya	0,0	0,2	0,0	1,8	10	8
Buyuk Britaniya	7,1	0,2	22,5	1,3	2	9
Polsha	0,1	0,1	0,3	0,8	8	10
Belgiya	0,0	0,1	0,0	0,4	11	11
Shvetsiya	0,0	0,1	0,0	0,4	12	12

Xizmatlar importi tarkibi, (% da)

2019- yil



2020- yil




Xizmatlar importi hajmi 1,1 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 8,3 % ini tashkil etdi va 2019- yilning shu davriga nisbatan 62,3 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (85,7 %) hamda moliyaviy xizmatlar (9,1 %) dan iborat bo'ldi.


Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar yanvar oyida, dekabr oyiga nisbatan 11,7 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 12,7 mln. AQSh dollarga kam import qilingan, xizmatlar esa 1,0 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan.

**Respublika importida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi, (% da)
(yanvar)**

2019- yil



2020- yil



2020- yilning yanvar oyida respublikaga 25 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Vyetnam va AQSH hamkor davlatlaridan jami import hajmi 12,0 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 90,8 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

**Mashina va usbob-uskunalar import qilingan
asosiy hamkor davlatlar**

DAVLAT NOMI	XITOY	ROSSIYA	VYETNAM	KOREYA RESPUBLIKASI	LATVIYA
Ming AQSH doll.	3 526,2	1 161,6	573,5	408,3	158,5



2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	32,1	10,4 b.	149,4	38,8	-
Ulushi, % da	56,8	18,7	9,2	6,6	2,6

Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	POLSHA	LITVA
Ming AQSH doll.	2 253,2	113,8	36,9	26,2
2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	197,6	48,6	-	-
Ulushi, % da	92,1	4,6	1,5	1,1

Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	KOREYA RESPUBLIKASI	ERON	BELGIYA	ROSSIYA
Ming AQSH doll.	383,1	189,6	148,1	57,6	55,0
2019- yilning shu davriga nisbatan, % da	8,7 b.	33,3	-	-	92,4
Ulushi, % da	41,9	20,8	16,2	6,3	6,0



Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 71 230-82-06**